

ADABIY ASARLARDA SOMATIK IBORALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

*Sharofova Ruxshona Ulug'bek qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarda somatik birliklarning qo'llanilishi, ularning tarjimasida yuzaga keladigan ba'zi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Namuna sifatida Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asarini tarjima qilish jarayonida somatik birliklarning ishlatilishi hamda ularning ba'zi muqobil ekvivalentlari berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: somatik birliklar, tarjima, obrazli ifoda, tafovut, ibora.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА СОМАТИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье анализируется употребление соматических единиц в художественных произведениях и некоторые трудности их перевода. В качестве примера приводится использование соматических единиц и некоторых их альтернативных эквивалентов в процессе перевода «Счастливой Кэрри» Теодора Драйзера.

Ключевые слова: соматические единицы, перевод, образное выражение, различие, фраза.

CHALLENGES OF TRANSLATING SOMATIC EXPRESSIONS IN LITERARY WORKS

Abstract: This article analyzes the use of somatic expressions in novels and some difficulties in their translation. As an example, the use of somatic expressions and some of their alternative equivalents in the process of translating Theodore Dreiser's "Sister Carrie" is given.

Key words: somatic units, translation, figurative expression, difference, expression.

Barchaga ma'lumki, badiiy adabiyot bevosita inson ruhiyatining tarjimonidir. Ayniqsa, unda ifodalangan real voqealar kitobxonning diqqat-e'tiborini tortadi va o'quvchining mutolaa qilishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, yozuvchilar ko'pincha o'z ijod mahsullarining yanada hayotiy bo'lishini ta'minlash maqsadida somatik birliklardan keng foydalanishadi. Ammo bu holat tarjimonlik faoliyatida ba'zi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Somatik birliklar deganda, inson tanasi bilan bog'liq bo'lgan va badiiy asarlarda g'oyalar, his-tuyg'ular va obrazlarni ifoda etishda muhim rol o'ynaydigan tasvirlarni tushunamiz. Masalan, "ko'zlar", "qo'llar", "yurak", "yuz" kabi somatik elementlar badiiy asarlarda keng qo'llaniladi. Ingliz tili somatik birliklarni ifoda etishda o'zbek tilidan farq

qiladi. Ba'zi hollarda o'zbek tilidagi tarjimada obrazlarni ifoda qilish uchun qo'shimcha so'zlar yoki iboralar qo'llash kerak bo'ladi.

Hozir esa Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asari tarjimasidagi somatik birliklar bilan bog'liq tafovutlarni tahlil qilib ko'ramiz. "Baxtiqaro Kerri" da somatik birliklar, ayniqsa, Kerri tanasining tasvirlari, uning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini va tajribalarini ifoda etishda muhim rol o'ynaydi.

"Qo'llar"ning ramziy ma'nosi: Ingliz tilida qo'llar ko'pincha harakatni, faollikni yoki ishni ifodalashda ishlatiladi. O'zbek tilida esa qo'llar ko'proq himoya, saqlash yoki yordam berish ramzi hisoblanishi mumkin. Misol uchun. *"Either she falls into saving hands and becomes better, or she rapidly assumes the cosmopolitan standart of virtue and becomes worse"* gapi kitob tarjimasida *"Yo u yaxshi odamlar qo'liga tushib, ishlari yurishib ketadi, yo poytaxtdagi axloq ta'siriga tezda berilib, battar bo'ladi"* deyilgan. *"Falls into saving hands"* iborasi ushbu gapda bir qancha yo'llar bilan ifodalanishi mumkin. Bu yerda esa *"Yaxshilikka intilgan qo'llarga tushib"* degan ma'noda keladi hamda gapni *"Yo u yaxshilikka intilgan qo'llarga tushib, yaxshiroq bo'ladi, yoki tezda poytaxt shaharning axloq me'yorlarini o'zlashtirib, yomonlashadi"* deya muqobil variantga ham keltirilishi mumkin.

Ko'zlarning ramziy ma'nosi: Ingliz tilida ko'zlarning tasviri ko'pincha his-tuyg'ularni ifoda qilish uchun ishlatiladi. O'zbek tilida esa ko'zlar ko'proq aqlni, ong-shuurini ifodalashi mumkin. Masalan, Kerri ko'zlarining tasviri ingliz tilida uning istaklari va umidlarini aks ettirgan bo'lsa, o'zbek tiliga tarjima qilinganda bu istaklar va umidlar boshqa so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Jumladan, *"The gleam of a thousand lights is often as effective as the persuasive light is a wooing and fascinating eye"* gapi kitob tarjimasida *"Minglarcha chiroqlarni porlab turishi sevilgan ko'zlarning go'zal boqishidan kam ta'sir qilmaydi"* deya tarjima qilinadi. Ammo o'zbek tilida *"as the persuasive light is a wooing and fascinating eye"* birikmasi *"jozibali va sehrli ko'zning ishontiruvchi nuri kabi"* deya tarjima qilinib, bunda nigohning ishontirish xususiyatini ko'rsatib beradi. Natijada, gap *"Minglab chiroqlarning porlashi ko'pincha jozibali va sehrli ko'zning ishontiruvchi nuri kabi ta'sirli bo'ladi"* degan tarjimada ifodalanadi.

Shuningdek, *"All the time she was conscious of certain features out of the side of her eye"* gapi ham kitob tarjimasida *"U suhbat asnosida hamrohiga zimdan qarab qo'yardi"* deya tarjima qilingan. *"All the time she was conscious"* birligi doimo xabardorlikni ta'kidlaydi. *"Certain features"* noaniqlikni aks ettirgani uchun uni umumiy saqlagan holda *"ayrim xususiyatlar"* deb tarjima qilish mumkin. Shunda bu gapni *"U doimo ko'zlarining chekkasidan ayrim xususiyatlarni sezib turardi"* deb tarjima qilsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Gap bezovtalik yoki shubha hissini bildiradi. Tarjimada bu "sezib" so'zi yoki umumiy ohang orqali yetkazishga harakat qilingan.

"A clever companion – had she ever had one – would have warned she never to look a man in the eyes so steadily" gapi kitob tarjimasida *"O'shal damda uning yonida aqlli va tajribali"*

birorta do'sti bo'lganida erkakning ko'ziga hadeb tik boqaverish kerak emasligini qulog'iga qo'ygan bo'lardi" deya tarjima qilingan. Bu gapda "a clever companion - had she ever had one" birligi orqali shart ma'nosi yuzaga kelgan va bu "agar hayotida aqlli bir hamrohi bo'lsa" degan variantga mos keladi. Bu gapni o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilish mumkin: "Aqlli bir hamrohi bo'lganida – agar u hayotida bunday hamrohga ega bo'lgan bo'lsa – unga hech qachon erkakning ko'zlariga shunchalik qat'iyat bilan qaramaslikni aytib ogohlantirgan bo'lardi".

Sochning tasviri uslubi: Ingliz tilida soch ko'pincha realistik tarzda tasvirlanadi. O'zbek tilida esa soch tasviri ko'proq obrazli va ramziy bo'lishi mumkin. Ingliz tilida soch haqida ko'p metaforalar ishlatiladi. Masalan, "a mane of hair" yoki "a cascade of hair". O'zbek tilida esa soch haqida ko'proq obrazli iboralar ishlatiladi. "She felt him observing her mass of hair" gapi kitob tarjimasida "Ajib zulfidan ham ko'z uzmayotganligini ham payqardi" deya tarjima qilingan. Biroq, "mass of hair" iborasini shunchaki "zulf" deb tarjima qilish be'mani tuyuladi. Chunki "mass" so'zi "katta miqdorda" yoki "ko'pligi" degan ma'noni beradi. Shuningdek, bu yerda "mass" so'zi sifat bo'lib kelgan va bu sochlarning go'zalligi va juda ko'pligini ifodalaydi. Va bu iborani quydagi variantlar bilan ifodalash mumkin: "uning sochlari dengizi" – sochlarning juda ko'pligi va go'zalligi haqida obrazli ifoda beradi:

"uning sochlar to'lqini" – sochlarning harakatini va go'zalligi haqida aytiladi:

"uning qalin sochlari" – sochlarning zichligi haqida aytiladi. Tarjimada qaysi ifodani ishlatish esa asarning uslubi va asosiy fikriga bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Baxtiqaro Kerri" asarini tarjima qilishda somatik birliklarni to'g'ri uzatib berish muhimdir. Somatik birliklarni tarjima qilish jarayoni murakkab va o'ziga xos qiyinchiliklar bilan bog'liq. Tarjimon tilning madaniy farqlari, tilning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari va somatik birliklarning ramziy qadriyatini hisobga olish kerak. Somatik birliklarni to'g'ri tarjima qilish badiiy asar ma'nosi va badiiy qadriyatini saqlab qolishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Theodore Dreiser, "Sister Carrie", University of California Library, Los Angeles, 1997.
2. Teodor Dreyze, "Baxtiqaro Kerri", Toshkent, 2007.